

## BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MANTIQIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Sh.I.Nasimova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lif)  
-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, tarkibiy qismi, uning tarbiyaviy ahamiyati, mazmun-mohiyati hamda ilmiy-nazariy qarashlar to'g'risida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lif, rivojlantirish, matematika, fikrlash, mantiq, tafakkur, rivojlantirish, mnemonika, mantiq, qobiliyat, kuzatish.

### ФОРМИРОВАНИЕ СПОСОБНОСТЕЙ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЬНОЙ МАТЕМАТИКЕ.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается развитие логического мышления учащихся на уроках математики в начальной школе, его составляющие, воспитательное значение, содержание и научно-теоретические взгляды.

**Ключевые слова:** образование, развитие, математика, мышление, логика, мышление, развитие, мнемотехника, логика, способность, наблюдательность.

### FORMATION OF STUDENTS LOGICAL THINKING ABILITIES IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS

**Annotation:** This article discusses the development of students' logical thinking in elementary school mathematics, its components, its educational value, content and scientific-theoretical view.

**Key words:** education, development, mathematics, thinking, logic, thinking, development, mnemonics, logic, ability, observation.

,,2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi „Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifning davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarorida [1] davlat yoshlar siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni tabiyalash, oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifati va uni baholashning xalqaro standartlarini joriy etish orqali tubdan yaxshilash, yoshlarda mustaqil va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. [2]

Insoniyat tarixiy taraqqiyotini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, bashariyat jamiyatni hozirgi kunga qadar uch tamaddunni bosib o'tganligini, yani birinchisi, an'anaviy-agrar jamiyat, ikkinchisi industrial (sanoatlashgan) va uchinchisi postindustrial jamiyatlar ekanligini hamda uning mazmun-mohiyati jihatdan bir-biridan farq qilishini ko'rishimiz mumkin. An'anaviy-agrar va industrial (sanoatlashgan) jamiyatlarda taraqqiyot ko'proq inson bilaklariga, kuchiga tayangan bo'lsa, XXI asrga kelib ilm-fan taraqqiyoti va texnika rivojini belgilab beruvchi mezon sifatida asosiy yuklama inson miyasiga tushayotganligini bevosita guvohi bo'lib turibmiz.

Pedagogik amaliyotning hozirgi bosqichi - ta'larning axborot-tushuntirish texnologiyasidan bolaning shaxsiy fazilatlarining keng doirasini shakllantiradigan faol rivojlantiruvchiga o'tish. Bu nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish va qayta ishslash usullari, o'quvchilarining bilim qiziqishlari va ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bolaning mакtabda bo'lishining muhim natijasi o'sha ruhiy neoplazmalarning shakllanishi, uning shaxsiyatining fazilatlari bo'lishi kerak, bu talaba bugun va ertaga muvaffaqiyatli o'qish uchun zarurdir.

Hozirgi kunda mental arifmetika, mnemonika kabi dunyoning rivojlangan davlatlari yosh avlodining maktabgacha va maktabning boshlang'ich sinflari ta'limgiz tizimining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan bu tushunchalar mamlakatimizda endigina kurtak yozdi. Mental arifmetika bolaning 4 yoshidan 14 yoshigacha miya yarim sharlarining uyg'unlikda rivojlanishiga katta yordam beradi. Mental arifmetika nafaqat tezkor hisob-kitob qilish, balki voqeа-hodisalarining rivojini ko'ra olish hamda boshqa fanlarni qiyalmasdan o'zlashtirishiga katta yordam beradi. Bugungi kunda o'quv tarbiya jarayoni zamonaviy o'qitish usullaridan, pedagogika fanining ilg'or yutuqlaridan foydalanish, shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang'ich ta'limgiz nazariyasini yaratish kabi vazifalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Boshlang'ich ta'larning asosiy vazifalaridan biri – ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z –o'zini anglash salohiyatini shakllantirishdan iborat. Belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirishning ahamiyati to'g'risida fikr yuritmoqchimiz. Boshlang'ich ta'larning o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, bolalar maktabga ta'limgiz olish uchun turli tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan holda har xil ijtimoiy tajribaga ega bo'lgan holda hamda turlicha psixologik va fiziologik holatda kirib kelishadi. Turlicha rivojlanishdagi bunday shaxslarga ta'limgiz tarbiya berish, barkamol avlod sifatida tarbiyalashda esa, bolalarda mantiqiy bilishning shakllantirish, ya'ni mantiqiy fikrlashni o'stirish samarali usul hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mantiqiy fikrlash tug'ma iste'dod emas, shu ma'noda uni shakllantirish hamda o'stirish mumkin va zarur. Doimo mantiq fanini o'rsanish unga murojaat qilish, o'quvchilarining abstrakt mantiqiy fikrni o'stirishning sinalgan usullari hisoblanadi.

Boshlang'ich mакtab yoshiga kelib, bolaning aqliy rivojlanishi ancha yuqori darajaga etadi. Barcha psixik jarayonlar: idrok, xotira, tafakkur, tasavvur, nutq rivojlanishning uzoq

yo'lini bosib o'tgan. Bolaning turli xil faoliyatini ta'minlaydigan turli xil kognitiv jarayonlar bir-biridan ajralgan holda ishlamaydi, balki murakkab tizimni ifodalaydi, ularning har biri boshqalar bilan bog'liq. Bu bog'liqlik bolalik davrida o'zgarishsiz qolmaydi: turli davrlarda jarayonlardan biri umumiy aqliy rivojlanish uchun yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Mantiqiy harakatlarga quyidagilar kiradi:

—xususiyatlarni ajratib ko'rsatish maqsadida ob'ektlarni tahlil qilish (asosiy, muhim bo'Imagan);


— sintez - qismlardan bir butunni yig'ish, shu jumladan yetishmayotgan komponentlarni to'ldirish bilan mustaqil yakunlash;

— ob'ektlarni taqqoslash, turkumlashtirish, tasniflash uchun asoslar va mezonlarni tanlash;

- tushunchaga bo'y sunish, oqibatlarni keltirib chiqarish;
- sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish;
- mantiqiy fikrlash zanjirini qurish;
- dalil;
- farazlar va ularning asoslanishi.

Masalan, mantiqiy masalalarda fikrlash qobiliyatini o'stirishning o'ziga xosligi mavjud. Shu masalalarga misollar keltiramiz.

### 1. Munisaning Nodiraga nisbatan bo'yи pastroq, Kamolaning esa Nodiraga nisbatan bo'yи balandroq.



Quyidagi savolga javob.

**Kimning bo'yи balandroq-Kamolanimi yoki Nodiranikimi ?**

Qizchalarni bo'yiga qarab yozib chiqamiz.

**Yechimi:** Kamola, Nodira, Munisa.

### 2.Ikki litr bankadan va 5 litr suv sig'adigan choynakdan foydalanib, qaysi yo'l bilan 6 litr suv olish mumkin?

**Javob:** Bankaga 2 litr suv olib, choynakka quyamiz, yana bankaga 2 litr suv olib choynakka quyamiz va bankaga yana 2 litr suv olamiz.

### 3.Bolada bir nechta nok bor edi. U noklarni ikki opasiga bo'lib berishga qaror qildi.U kichik opasiga noklarni yarmini va yana bitta nok berdi. Katta opasi esa qolgan 2

**tasini      berdi.      Bolada      nechta      nok      bor      edi?**

**Javob:** bolada 6 ta nok bor edi. [3]

Matematika darslarida o'quvchilar mantiqiy fikrlay oladigan mana shunday turdag'i masalalar ham berilishi mumkin. [4]

Mantiqiy tafakkurning yuqori bosqichga erishish – uzoq va murakkab jarayondir, chunki mantiqiy tafakkurning atroflicha rivojlanishi nafaqat aqliy faoliyatning yuqori darajadagi faolligini talab qiladi, balki narsa va hodisani umumiylar va muhim belgilari so'zlarda mustahkamlangan umumlashgan bilimlarni talab etadi. O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish, matematikaga qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli layoqatli bolalarni topish, talabchanlik, irodali qilib tarbiyalash, mehnatga muhabbat, uyushqoqlik va insoniylikni tarbiyalash.

Hozirgi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan O'zbekistonning barcha viloyatlarida Prezident makteblari qurilmoqda. Bu muktabga mantiqiy fikrlaydigan, teran fikrli, bilimdon, ziyrak o'quvchilarni tanlab olinmoqda. Bu o'quvchilar bizning ishongan kelajak avlodlarimizdir. Mana shu yoshlardan albatta Alisher Navoiy, Ibn Sino kabi ulug' allomalar yetishib chiqadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashitirish to'g'risida”gi PQ-2909-sonli qarori.-Xalq so'zi gazetasi, 2016-yil 31-dekabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PQ-4947-sonli farmoni.-Xalq so'zi gazetasi, 2017-yil 9-fevral
3. M.E.Jumayev, N.T.Axmedova, B.S.Abdullayeva, N.U.Aslonova “Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar”. Toshkent. 2016 yil – 53-54 betlar.
4. “Kangoro” xalqaro matematika tanlovi 2018- 2019- yil materiallari.

#### **INTERNET SAYTLARI:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz)
3. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
4. [www.alochi.uz](http://www.alochi.uz)
5. <http://ziyonet.uz>
6. [nsportal.ru](http://nsportal.ru)-elektron resursi